

## **TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*Zilola Xojibekova Shavkat qizi*  
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Pul va banklar*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish, tijorat banklari aktivlarini tezkor va strategik rejalashtirishni mohiyati, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, tijorat banklarida strategik rejalashtirishni takomillashtirish zaruriyati to'g'risida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, aktivlar, strategik rejalashtirish, moliyaviy barqarorlik, qimmatli qog'ozlar, depozit.

### **Kirish:**

Bugungi raqobatbardosh moliyaviy sharoitda tijorat banklari doimiy ravishda o'z faoliyatini yaxshilash va daromadni maksimal darajada oshirishga intilmoqda. Ushbu intilishning muhim jihatlaridan biri aktivlar samaradorligini oshirishdir. Aktivlarni samarali boshqarish banklarga risk darajasi pastroq bo'lgan holda yuqori daromad olish imkonini beradi va natijada ularning umumiy moliyaviy salomatligi va barqarorligiga hissa qo'shadi. Ma'lumki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim e'tibor yuqori likvidli aktivlar bilan yuqori daromadli aktivlar orasidagi nisbatning oqilona darajasini ta'minlash kerak.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Tijorat qimmatli qog'ozlariga qilingan bank investitsiyalarini yuqori likvidli aktivlar qatoriga kiritish mantiqan to'g'ri emas. Sababi tijorat qimmatli qog'ozlari aniq moddiy kafolatga ega emas, ayniqsa, davlatimiz muhitida ko'pgina korxonalarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lovsizlik masalasi mavjud.

Tijorat banklarining likvidli aktivlarining miqdorini depozitlarning barqaror bo'lmagan qismiga nisbatan emas, balki mazkur depozitlar va jamg'arma depozitlariga qaraganda belgilash maqsadga muvofiqdir. Sababi aynan shu depozitlarning barqaror bo'lmagan darajasi yuqori bo'lib, tijorat banklarida likvidlilik riskini doimiy tarzda yuzaga keltiradi. Depozitlarning doimiy qismining barcha depozitlarning 75 foizi miqdorida rivojlanishi takomillashgan xorijiy mamlakatlarning amaliyotiga aloqador bo'lgan holat sanaladi. Ushbu davlatlarda moliya bozorlarining shakllanganligi, moliyaviy holati doimiy bo'lgan mijozlarning ko'pligi, Markaziy bank monetar siyosatining maqsadi va vazifalarini aniq, shuningdek shaffofligi, korxonalarining soliq yukini mo'tadil darajaga keltirilganligi va boshqa omillar xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimining doimiy darajasini ta'minlashga zamin yaratadi.

### **Natijalar:**

Tijorat banklarning aktivlarini boshqarish zaruriyati takomillashgan davlatlar bank tizimida 1960-yillardan keyin vujudga kelgan. Ilk marta, banklarda aktivlarni o'zaro mutanosiblikda joylashtirish, bank foydasi barqarorligini ta'minlash, banklarda risk darajasini kamaytirish kabi muammolar ularning aktivlarini boshqarish zaruriyatini keltirib chiqardi. 1980-yillarga kelib banklarda integratsiyalashuv jarayonining chuqurlashuvi, moliyaviy resurslarning davlatlararo suzib yuruvchanligiga muhitining yaratilganligi va iqtisodiyotning yanada globallasuvi bank likvidligini ta'minlash va kerak miqdorda foydasini rivojlantirish uchun faqatgina bank aktivlarini boshqarish yetarli bo'lmay qoldi.

Xalqaro moliya bozorlarida resurslarga bo'lgan raqobatning ortishi, bank riskli aktivlari va muddatli majburiyatlari orasidagi nomutanosiblik holatlari, bank o'z majburiyatlarini to'liq va belgilangan muddatda bajarish bilan bog'liq muammolar bank passivlarini boshqarishga bo'lgan zaruriyatni keltirib chiqardi. Bugungi kunda bank aktivlarini boshqarish faol takomillashtirish bosqichiga kirdi, hozirgi vaqtga kelib aktivlarni boshqarish nafaqat banklarda, balki yirik kompaniya va firmalarda ham keng foydalanilmoqda.

### **Muhokama:**

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning muhim yo'nalishlari quyidagilar sanaladi:

1. Aktivlarning optimal tarkibini takomillashtirish;
2. Aktivlarning daromadlilik va risk darajalari orasidagi mutanosiblikni ta'minlash;
3. Pul oqimlariga bo'lgan barcha ehtiyojlarni qondirish imkonini yaratadigan darajada likvidlilikni saqlash;
4. Aktivlarning foiz stavkalari va valyuta kurslarining tebranishlariga nisbatan moslashuvchanligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF- 4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada takomillashtirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini rivojlantirish hamda valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy qilish va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash, bank tizimini isloh etishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallasuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlash makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning kerak bo'lgan shartlaridan biri sifatida belgilab berilganligi tijorat banklari aktivlarini boshqarishni sifat tomondan yangi bosqichga olib chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Taraqqiy etgan davlatlar tijorat banklarining aktivlari tarkibida salmog'iga ko'ra ikkinchi o'rinni bankning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalari egallaydi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibida esa, salmog'iga ko'ra ikkinchi o'rinni kassali aktivlar egallaydi. Bu esa, aktivlar daromadlilik darajasining past ekanligidan dalolat beradi.

### **Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularni resurs bazasini mustahkamlash O'zbekiston Respublikasi bank tizimini o'rta muddatli istiqbolda takomillashtirishni ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bu esa, o'z o'rnida, tijorat banklarida strategik rejalashtirishni shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tijorat banklarini likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularni resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan masalalarni mavjudligi banklarda strategik rejalashtirishni takomillashmaganligidan dalolat beradi. Xususan, mamlakatimiz tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilik masalasini chuqurlashganligi kuzatilmoqda.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. "Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish" fanidan o'quv qo'llanma. Samarqand: "SamDU nashriyoti", 2020.
2. Malikova Dilrabo Muminovna, Burxanov Iskandar Shuhratovich Banklarning kredit portfeli va ularni samarali boshqaruv usullari. // JMBM. 2023.
3. Shermuxamedov B.U/ Tijorat banklarida depozit siyosati samaradorligini baholash uslubiyati "moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali" V son 2020.
4. Bektemirov Abdumalik, Malikova Dilrabo Muminovna, Pirnazarov Umid Narjigitovich BANK KREDIT PORTFELI VA UNI SAMARALI BOSHQARISH YO'LLARI // JMBM. 2023.